

LINGVOMADANIYATSHUNOSLIKDA PRETSEDENT NOMNING STEREOTIP, ETALON, RAMZ BILAN MUNOSABATI (iboralar misolida)

Muxlisaxon Baxtiyor qizi SAYDALIYEVA

Kichik ilmiy xodimi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi

O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti

Toshkent, O'zbekiston

СВЯЗЬ ПРЕЦЕДЕНТНОГО ИМЕНИ СО СТЕРЕОТИПОМ, ЭТАЛОНОМ И СИМВОЛОМ В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ (на примере фразеологизмов)

Мухлисахон Бахтиёр кизи САЙДАЛИЕВА

Младший научный сотрудник

Академия наук Республики Узбекистан

Институт узбекского языка, литературы и фольклора

Ташкент, Узбекистан

THE CONNECTION OF A PRECEDENT NAME WITH A STEREOTYPE, ETALON AND SYMBOL IN LINGUOCULTUROLOGY (on the example of phraseological units)

Mukhlisakhon Bakhtiyor kizi SAYDALIEVA

Junior research assistant

Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore

Tashkent, Uzbekistan saydalievamuxlisa@gmail.com

UDC (UO'K, УДК): 81'42: 811.512.133

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Saydalieva M. B. Lingvomadaniyatshunoslikda pretsedent nomning stereotip, etalon, ramz bilan munosabati (iboralar misolida) // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 6 (53). — B. 93-109.

<https://doi.org/10.36078/1703965248>

Received: October 11, 2023

Accepted: December 17, 2023

Published: December 20, 2023

Copyright © 2023 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

Annotatsiya. Lingvomadaniyatshunoslik fani asosida stereotip, etalon, ramz singari qator muammolar tadqiqi yotadi. Tilshunoslikka oid tadqiqotlarda bu tushunchalar tahlil etilsa, ular bo'yicha qarashlar bir-biridan jiddiy farq qilishini, bir tushuncha boshqasi bilan adashtirilishini kuzatamiz. Pretsedent nomlar yuqori informativ, ekspressiv va allyuziv xarakter kasb etishi sababli ham ular orqali stereotip, etalon va ramz munosabati va farqlari aniqroq gavdalanadi. Atoqli otning stereotip, etalon va ramzlar tizimidan joy egallashi aynan shu nomning pretsedentga aylanganini ko'rsatadi. Pretsedentlikning shartlaridan lingvomadaniy jamiyat vakillari lisoniy xotirasidan mustahkam o'rin eganliganlik va diskursda qayta-qayta jonlanish xususiyati ham shu yo'llar bilan namoyon bo'ladi. Stereotipda bir tushuncha atrofida muayyan qoliplashgan fikrlarning umumlashishini kuzatsak, ramzda atoqli otningning majoziylik (voqelikdan uzoqlik) xususiyati kuchli ifodalanadi; etalon bo'lsa, pretsedent nomning aynan o'zi ishtirok etgan va barchaga yaxshi tanish bo'lgan bir jihat yoki xususiyatning o'lchov me'yori, namunasiga aylanganidan dalolat berishini ko'ramiz. Shunga ko'ra mazkur maqolada pretsedent nomlar orqali stereotip, etalon va ramz munosabatini ochishga, ular o'rtasidagi tafovutlarni yuzaga chiqarishga e'tibor qaratildi.

Kalit so'zlar: pretsedentlik; pretsedent nom; onim; stereotip; etalon; ramz; iboralar; lingvomadaniy hamjamiyat.

Аннотация. В основе лингвокультурологии лежит изучение ряда проблем, таких как стереотип, эталон, символ. Когда эти понятия анализируются в лингвистических исследованиях, мы замечаем, что взгляды на них существенно различаются, одно понятие путается с другим. Даже в связи с тем, что прецедентные имена приобретают высокоинформативный, экспрессивный и аллюзионный характер, через них ярче выражаются стереотипные, эталонные и символические установки и различия. Тот факт, что известное имя занимает место в системе стереотипов, стандартов и символов, свидетельствует о том, что это имя стало прецедентом. Мы наблюдаем обобщение определенных устоявшихся вокруг понятия идей в стереотипе, мы видим, что в символе сильно выражена характеристика образности (удаленности от действительности); в случае эталона мы видим, что прецедент свидетельствует о том, что имя стало эталоном измерения, образцом аспекта или характеристики, в которых участвует именно оно и с которыми все хорошо знакомы. Соответственно в статье основное внимание было уделено раскрытию отношений стереотипа, эталона и символа через прецедентные имена, выявлению различий между ними.

Ключевые слова: прецедентность; прецедентное имя; оним; стереотип; эталон; символ; фразеологизмы; лингвокультурное сообщество.

Abstract. The basis of linguistics deals with a number of problems, such as stereotype, benchmark, symbol. When these concepts are analyzed in the studies on linguistics, it is observed that the views on them are seriously different from each other, one concept is confused with another. Even because prepositional names acquire a highly informative, expressive and allusive character, the stereotype, etalon and symbol attitude and differences are brighter embodied through them. The fact that the noble horse takes up space from a system of stereotype, etalon and symbols suggests that this name became a precedent. From the conditions of precedence, representatives of the linguistic society are manifested in these ways, as well as having a strong place in the linguistic memory and the feature of repeated revitalization in discourse. In a stereotype, observing a generalization of certain molded thoughts around a concept, in a symbol, the figurative (distance from reality) property of the proverbial noun is strongly expressed; in the case of a benchmark, we see that the precedent name indicates that it is precisely the aspect or feature that is involved and well known to everyone. Accordingly, this article is focused on opening up the stereotype, benchmark and symbol relationship through precedent names, bringing differences between them to the surface.

Keywords: precedent; precedent name; onym; stereotype; etalon; symbol; phrases; linguistic community.

Kirish. Borliq hodisalarini anglashga intilgan insonning tabiati uni o‘rab turgan voqelikni o‘zida mavjud bilimlar orqali analiz va sintez qilish asosida amalga oshadi. Ya’ni inson har qanday o‘ziga yot hodisalarga, avvalo, o‘ziga ma’lum bo‘lgan o‘lchovlar asosida baho beradi. Bu kabi ibtidoiy o‘lchov keyinchalik madaniyatda baho mezoniga aylanib boradi. Stereotiplar shunday jarayonda shakllanib, xalqning bilimlar tizimidan joy oladi. Stereotip hodisasi sotsiologiya, psixologiya, etnografiya, etnopsixologiya, kognitologiya kabi sohalarining tadqiqotlari doirasida o‘rganiladi. Tilshunoslikda

muammoli nuqtalardan yana biri — **etalondir**. Etalonlarning pretsedent birliklar bilan munosabatida ham yuqoridagi singari vaziyat namoyon bo'ladi. Etalon doirasida har qanday o'zaro taqqoslanuvchi obyektlar umumiy xususiyat doirasida olinishi shart qilib belgilanadi, ya'ni ular bir mantiqiy sinfga oid bo'lishlari lozim.

Asosiy qism. Sh. Usmanonova "Stereotip — muayyan guruh yoki jamoaning soddalashgan, sxemalashgan, emotsional bo'yoqdor va favqulodda barqaror bo'lgan obrazi, turli madaniyat vakillarining tili va tafakkurining o'ziga xosligidir", deb ta'riflaydi (20, 194) va ular insonga olam haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lish, o'zining tor ijtimoiy, geografik va siyosiy muhitidan chiqishga imkon beradi, deb hisoblaydi. Inson hayotida bevosita duch kelmagan ko'plab narsa-hodisalarga nisbatan o'z miyasida tasavvur hosil qiladi. Bu tasavvurlar esa shaxsning madaniy muhiti ta'sirida shakllanadi. "Stereotip" terminini fanga olib kirgan U. Lippmanga ko'ra, narsa-hodisalarni kuzatish davomida biz insonlar "Tashqi dunyoning butun chalkashliklaridan bizning madaniyatimizga aloqadorinigina yulib olamiz va biz mazkur ma'lumotni stereotip shaklida qabul qilishga moyil bo'lamiz" (20, 195), stereotip esa kishilarda o'ziga begona biror yangi hodisa (yoki obraz) haqida hosil bo'lgan birlamchi tasavvur va ayni vaqtning o'zida obyekt bilan to'qnashgungacha uni qurshab olgan borliq orqali o'zlashtirilgan bilimlari asosida shu obyekt haqida paydo bo'lgan xulosasi sifatida namoyon bo'ladi. Tilshunos olim G. Ismoilov stereotip "...mental lisoniy tuzilma tarkibidagi yakka hodisa sifatida emas, balki jamoa ongida borliqdagi narsa va hodisalarning qoliplashgan turi bo'lib, ular assotsiatsiya orqali tilda turg'unlashgan tasavvur, shu jumladan, obraz sifatida reallashadi", deb hisoblaydi (8, 86). Shuningdek, tilshunos inson hayotida muayyan obyekt-hodisalarning uchrashi va ushbu obyekt va hodisaga insonning munosabati natijasida reallashgan ifodasi stereotipning shakllanishiga asos bo'lishini qayd etadi (2, 76). O. Kirpichevaning fikriga ko'ra, stereotiplarning asosiy vazifasi borliq hodisalari haqidagi tasavvurning "adaptatsiyasi"dan iborat, bu jarayon tasavvurlarning oydinlashishiga va yoki ularni chalkashtirib yuborish orqali amalga oshadi (9, 92).

Odatda, stereotiplar ikki xil ko'rinishda o'zini namoyon qiladi: xatti-harakatlar ("стереотипы поведения") stereotipi va tasavvurlar stereotipi ("стереотипы представления" — tasavvurlar stereotipi o'z navbatida ikkiga ajratiladi: vaziyat stereotipi va obraz-stereotiplar) (3, 453). Masalan, ayol konseptini olsak, o'zbeklarda ayol obrazining stereotipi sifatida bolaparvarlik, oilaparvarlik, uy-ro'zg'or ishlariga berilganlik, kamtarinlik, ibo-hayo singari qoliplashgan tasavvurlar keladi. Ayol portreti ekranlashtirilganida ham, odatda, oila davrasida ro'zg'or ishlari bilan band, qo'lida yosh farzandi bor, mayin tabassumli, sipo kiyingan (odatda, milliy liboslarda va aksar do'ppi, ro'mol singari atributlar bilan), uyatchan ayol obrazi orqali gavdalantiriladi. O'zbek etnomadaniyatida ayolni ehtirosli, nigohlari keskin, cho'rtkesar, jangovar, baland ovozda jo'shqin yoki erkaklar bilan basma-bas so'zlovchi obrazlar orqali ifodalash holati kuzatilmaydi. Demak, ayol konseptini biz o'zbeklar

birinchi ko‘rinishdagi ayol obrazi orqali tasavvur etamiz va bu ayni vaqtda o‘zbekning ayol haqidagi stereotipik tasavvuridir.

Stereotiplarning til bilan munosabati ilk bor amerikalik faylasuf X. Patnem tomonidan aniqlangan. Olim “Semantika bo‘lishi mumkinmi?” va “Ma’no”ning ma’nosi” nomli ishlarida hayvonlar, o‘simliklar, tabiiy jismlar, fizik kattaliklarni ifodalashga xizmat qiluvchi so‘zlar asosida “tabiiy turlar nazariyasi”ni ishlab chiqadi. Patnem stereotiplari o‘zida markaziylik xususiyatini namoyon qiladi, uning nisbatan muhim alomatlari “semantik marker” sifatida belgilanadi. Shuning uchun ham olim umumqabul qilingan so‘zlarning muhim doimiy “an’anaviy” ma’nolari (denotat) bilan bir qatorda ensiklopedik ma’lumot tarzida stereotip tavsifini ham kiritish kerak, degan nazariy fikrni ilgari suradi. Patnem ma’lum bir tilda so‘zlovchilarning jamoasini ifodalash uchun “lisoniy hamjamiyat” tushunchasini fanga olib kiradi va bu hamjamiyat vakillarini mutaxassislar va oddiy til sohiblariga ajratadi (4, 7). Vilingbaxovanning fikriga ko‘ra, fransuz tilshunosligida stereotiplarga munosabat ikki xil talqin asosida o‘zini namoyon etadi. Ba’zi qarashlar stereotip uchun eng optimal lug‘aviy sharhni topish bilan bog‘liq leksikografiyaga oid ishlarda kuzatilsa, boshqa taraf qarashlari J. K. Anskombrning “Stereotiplar nazariyasida leksikaning roli” nomli asarida keltirilgan stereotiplar nazariyasiga oid fikrlari bilan farqlanadi (4, 8). J. K. Anskombr aynan bir xil mazmunga ega ma’lum lisoniy birliklar to‘plamidan foydalanuvchi so‘zlovchi subyektlar majmuyiga nisbatan lisoniy jamoa (языковой коллектив) deb qaraydi. Olim bir so‘zlovchi individ bir vaqtning o‘zida ko‘plab lisoniy jamoalarga a‘zo bo‘lgani holda, turli nutq o‘rinlarida (masalan, oila, do‘stlar davrasida yoki ishda va hokazo) turlicha stereotiplarga ega bo‘lishi mumkinligini e’tirof etadi. Olim bitta stereotip qarama-qarshi mazmunlarga ega bo‘lishi, muntazam yoki vaziyatga bog‘liq tarzda takrorsiz ham bo‘lishi mumkinligini e’tirof etadi. J. K. Anskombrning stereotiplar nazariyasi konkret stereotip obykti/vaziyatni aniqlashga emas, turli lisoniy faktlarni asoslashga qaratilgan. Polyak tilshunosi Y. Bartminskiy konsensiyasida esa stereotip etnolingvistikaning markaziy tushunchasi sifatida talqin qilinadi. Unga ko‘ra, stereotip predmetning tavsiflovchi va baholovchi xususiyatlarini ham qamrab oluvchi, shuningdek, ijtimoiy o‘zlashtirish modeli doirasida voqelik interpretatsiyasining natijasi o‘laroq predmet haqidagi subyektiv determinant tasavvur sifatida beriladi (4, 9). Bartminskiy birinchi bo‘lib, stereotip tahlilida subyektning o‘rniga ahamiyat qaratadi. Unga ko‘ra, stereotipik mulohaza qilish ikki muhim unsur doirasida sodir bo‘ladi: birinchi qism nima haqida aytilayotgani, ikkinchi qism esa uni kim aytayotgani.

Tilshunoslik doirasida etnomadaniy, ijtimoiy, gender, muloqot va nutqiy stereotiplar bilan bir qatorda onomastik stereotiplar ham o‘rganiladi. Etnostereotiplar deganda muayyan etnosga mansub aksariyat kishilarning boshqa bir etnos yoki ijtimoiy jamoaga mansub kishilar haqidagi standart tasavvurlari tushuniladi. Fanga ijtimoiy stereotip tushunchasini olib kirgan U. Lippman fikricha,

ijtimoiy stereotiplar “inson ongida olamning tartiblangan, determinant tasvirlari bo‘lib, avvalo odamni turli murakkab ijtimoiy obyektlarni anglashga bo‘lgan urinishlarda ortiqcha kuch sarflamaslikka sabab bo‘lsa, ikkinchidan, uning qadriyatlarini, pozitsiyasi va huquqlarini himoya etadi” (10, 127). Atoqli otlar bilan aloqador stereotiplar onomastik stereotiplar deb nomlanib, ular ijtimoiy va etnomadaniy stereotipning turi sifatida talqin etiladi (11, 371).

Antropotsentrik tilshunoslik tadqiqotlari ko‘lamining kengayishi natijasida keyingi davr rus tilshunoslari V. Krasnix, E. Fleysher, R. Shebalov, E. Vilinbaxova, N. Vasilyeva, O. Kirpichevalarning tadqiqotlarida ham pretsedentlik va stereotip, shu jumladan, onomastik stereotip hodisalari o‘rtasidagi bog‘liqlik va tafovutlarga bag‘ishlangan ilmiy ishlar yuzaga keldi. V. Krasnix stereotip va pretsedentlik tushunchalariga to‘xtalar ekan, ular orasidagi farqni quyidagicha tavsiflaydi, pretsedentlikda nom biror konkret realiya asosida prototip sifatida shakllanadi va u asos vazifani bajargan voqea yoki hodisa bilan bog‘liqlikni saqlaydi, stereotip esa yagona tushuncha asosidan uzoqlashgan bo‘ladi, ya‘ni “stereotip” terminining o‘zi “umumlashtiruvchi obraz”dir, unda predmetlarning ko‘p aspektliligi anglashiladi” (12, 39).

R. Shebalov onomastik stereotipni “...lisoniy xotirada mustahkamlangan ism sohibi haqidagi sotsio-, etnomadaniy axborotlarni beruvchi barqaror ism “obrazi”, ismni belgi sifatida talqin qilishning standart kodi” (16, 130) sifatida sharhlaydi. Shebalov badiiy matnda onomastik stereotiplardan lisoniy o‘yin (yazikovaya igra) maqsadida qo‘llash estetik qiymatni oshirishga xizmat qilishini, “gapiruvchi familiyalar”ning personaj xarakteristikasida muhim ahamiyat kasb etishini e‘tirof etadi (16, 39). Onomastik stereotiplarning shakllanishi ularning tipikligi bilan bog‘lanadi.

Sotsiomadaniy onomastik stereotiplarning shakllanishi, inson ongida faollashuvi va ulardan foydalanishni rus lingvomadaniyatshunosligi doirasida o‘rgangan O.Kirpicheva qator tajribalar asosida zamonaviy rus lingvomadaniyati sohiblarining jamoaviy lisoniy ongida (коллективное языковое сознание) antroponimik stereotiplar mavjudligini isbotlashga qaratilgan. Tajriba natijalariga ko‘ra, til sohiblarining lisoniy xotirasida ruslar uchun tipik onim sifatida qaraluvchi ismlar *Ivan* va *Mariya* (*Masha*) ismlari va ularning derivatlariga eng ko‘p murojaat etilgan. Respondentlar javoblari tahlili uzoq o‘tmishdan shakllangan lingvomadaniy an‘analari va antroponimik stereotiplar o‘rtasidagi aloqa mustahkam va barqaror ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, olimaning tajribasi turli yosh, jins va ijtimoiy maqomdagi ism berilmagan shaxslarga ism berish tajribasi orqali *Ivan* va *Mariya* ismlaridan keyingi o‘rinda joriy vaqtda mashhur bo‘lgan ismlar (*Artyom*, *Nikita*, *Daniil*, *Matvey*)ni aynan bolalar uchun tanlanganligi, yosh bolaga ism tanlashda ismning kichraytirib va erkalash uchun xoslangan shakliga murojaat qilinishi ancha faolligini qayd etadi. Xizmatchilar uchun ism tanlashda ham o‘ziga xoslik

seziladi. Masalan, Ivan, Vasiliy (Vasya), Pyotr, Mixail (Misha), Semyon ismlarini usta-chilangarlar uchun ism sifatida tanlaydilar. Aksariyat ruslarda Marya Ivanna (Ivanovna) antroponimi o'qituvchi ismi sifatida assotsiatsiya qoldiradi, shuningdek, Marya Ivanovna ism + o'taism kombinatsiyasidagi rus latifalari qahramoni ham mavjud. Bu komik qahramon landovurlikni, yengil darajadagi jinnilikni o'zida ifoda etadi. Shu sababli ham u til sohiblarining kollektiv lisoniy xotirasidada yengil kulgi, komik kayfiyat yaratish bilan barqaroro'rin egallaydi. Tajriba natijalaridan ko'rinadiki, jamiyatda onomastik stereotiplar shakllanishiga turli madaniy faktorlar, xususan, onimning pretsedentlik xususiyati ham ta'sir qiladi. Bu orqali antroponimik stereotiplar onomastik markerlar to'plami orqali atqali ot egasining ijtimoiy tavsifini berishga qodir ekanligi oydinlashadi (10, 129). Olimaning zoonimik stereotiplarga oid tajribaviy tadqiqoti ham pretsedent nomlarning stereotipik namoyon etishini isbotlagan. Aksariyat respondentlar kuchuk, mushuk, sigir va ayiqlarga ekranlashgan personajlarning, ertak, qissa, hikoya va hokazolarning nomlarini tanlashgan (9, 93).

Fleysherning ishlarida ham pretsedent nom va stereotip munosabatiga daxldor ba'zi mulohazalarni uchratamiz. Ruslardagi "Styopa amaki" ("дядя Стёпа") obrazi, ayni vaqtda pretsedent nomi ham stereotip sifatida qotib qolgan. Xususan, bu onimni eshitgan rus lingvomadaniy jamiyati vakillari lisoniy xotirasida "baland bo'yi kishi" va "militsoner amaki" degan ikkita stereotipik tushuncha yonma-yon kelishi mumkin, biroq bu tushunchalar rus millatiga mansub kishilar tasavvurida obrazni ikkita alohida qahramon sifatida tanishga sabab bo'lolmaydi. Bu obraz prototip sifatida turli manbalarda kelishi mumkin. Bu kabi turli asarlarda ko'chib yuruvchi personajlar kishilar xotirasida shu obraz bilan bog'liq stereotip shakllanishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, aynan pretsedent nom turli manbalarda jamlovchi obraz sifatida kelishi mumkin, bu xususiyat faqatgina pretsedent nomlarga xos. Ya'ni bu o'rinda bir nom ostida turlicha xarakterli qahramonlar "yasalmaydi", balki aynan bir obraz bir necha manbalarda o'z xususiyatini saqlagan holda ko'chib yuradi. Buning yaqqol misoli sifatida folklor obrazlarini ko'rishimiz mumkin. Folklor asarlari qahramonlari ayni bir vaqtda turli janrdagi namunalarda turli darajalardagi vazifalarni bajaruvchi obraz bo'lib gavdalanishi mumkin. Biroq bu hodisa muayyan pretsedent obraz to'g'risidagi tasavvurlarimizni o'zgarishiga sabab bo'lmaydi. Y. F. Kosichenko ham bu masalaga e'tibor qaratib, "pretsedent nomlar stereotiplar bilan uzviy bog'liq, lekin stereotiplar ortida yagona unikal predmet mavjud bo'lmaganligi sababli aynan ularning o'zi emas. Masalan, rusning stereotipik tasavvurida Ivan, oqko'ngil, biroz dangasa va sustkash, biroq jahli chiqsa, dahshatli qiyofada, lekin u konkret shaxs (qo'shimcha izoh: alohida yagona individ)ga bog'lanmaydi, Aleksandr Matrosov pretsedent nomi esa real personajni ifodalaydi (sababi u individual personaj)" degan fikrni ilgari suradi. O'zbek lingvomadaniy jamiyati vakillari uchun **Zumrad, Qimmat, Afandi, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur** singari milliy pretsedent

nomlari ham shu singari nom atrofida o'ziga xos stereotipik tasavvurlar shakllanishiga sabab bo'lgan.

Qorabotir personaji salbiy qahramondan tashqari “oraga rahna soluvchi”, “o'rinsiz oraga tushuvchi” singari okkazonal ma'nolarni ham kasb etgan, **Qimmat** deganda asosan, dangasa degan tasavvur shakllanishi o'zbeklar uchun tamomila tabiiy holatdir. Pretsedent nom va u bilan bog'liq stereotiplar, shuningdek, turli lingvomadaniy hamjamiyat vakillarida farqlanishi ham kuzatiladi (19, 36). Xuddi shuningdek, notanish kishilarni nomlash ehtiyoji yuzaga kelgan vaqtda **Eshmat**, **Toshmat**, kulgi kayfiyatini hosil qilish uchun **Gulchapchap** yoki **Nappi** singari laqablarga yoki ismlarga to'g'ridan to'g'ri murojaat qilish odati (turli ko'rinishdagi badiiy asarlarda personajga nom sifatida ham shu ismlarga murojaat qilinadi) bugun o'zbeklar orasida keng tarqalgan onomastik stereotiplar sirasiga kiradi. Lekin bu nomlarni biz pretsedent nom sifatida keltira olmaymiz, sababi bu nomlar alohida individni ajratib ko'rsatmaydi, balki vaziyat taqozosi bilan shartli ravishda nomlashga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda tilshunoslikda antoposentrik yo'nalishdagi tahlillar iboralar orqali, uni tashkil etuvchi komponentlari orqali alohida olingan etnosning, xususan, o'zbek xalqining ham olamni anglash tarzi, milliy-madaniy qadriyatlar tizimining tilga ta'siri haqida ham qimmatli ma'lumotlarni beradi. Har qanday yangi tilning o'zlashtirilishi uning leksik birliklarinigina egallash orqali amalga oshmaydi, begona tilning frazeologik birliklar tizimini o'zlashtirish shu tilni o'rganilganlik darajasini belgilovchi asosiy omil hamdir. Sababi aynan iboralar obrazlilik, ekspressivlik va emotsionallikni yuzaga keltirib, og'zaki so'zlashuvda, publitsistikada, badiiy adabiyot va bevosita til ishtirok etadigan har qanday san'at turida nutqning jonli bo'lishi, matnning ta'sirchanlik darajasi yuqori bo'lishiga xizmat qiladi. Iboralar tilning ta'sirchanligini ifodalovchi ko'rsatkichgina emas, balki to'laqonli nominativ ko'rsatkichi hamdir. Lekin frazeologik ma'no va leksik ma'no o'rtasida jiddiy tafovut mavjud. Ustoz tilshunos N. Mahmudov frazeologik birliklarning ma'no jihatiga to'xtalar ekan, “...so'z va iborani bir-biriga tamoman teng, mutlaq ekvivalent hodisalar sifatida baholash maqsadga muvofiq emas, bunga, ayniqsa, frazeologik ma'noning o'ziga xosligi, ko'lamdorligi, hajman boyligi, emotsional-ekspressiv zanginligi, umuman, frazeologik semantikaning murakkabligi yo'l qo'ymaydi”, deb ta'kidlaydi (13, 7).

Rus tilshunosi A. Potebnya frazeologizmlarning boshqa janrlar bilan aloqadorligi masalasiga e'tibor qaratib, masallar asosida matallar hosil bo'lgani, matallar esa frazeologizmlarning yuzaga kelishiga olib kelganini qayd etadi. A.Potebnyaning bu fikri janrlararo munosabatda pretsedentlik hodisasi asos vazifasini o'taganini dalillaydi. Xususan, Ezop masallari asosida inglizlarda *to blow hot and cold* — beqarorlik, ikkilanish, o'zgaruvchanlik yoki ikkiyuzlamachilik pozitsiyasida bo'lish singari ma'nolarni (masalga ko'ra, sayyoh bir vaqtning o'zida ham muzlab qolgan qo'lini isitish, ham qaynoq sho'rvani sovutish uchun puflaydi), *to cry wolf* —

yolg'on vahima ko'tarish holatini (cho'pon haqidagi masalda cho'pon shunchaki ko'ngilxushlik uchun yolg'ondan "Bo'ri!" deb baqirib, odamlar orasida yolg'on vahima ko'taradi) ifodalovchi iboralar yuzaga kelganini aytib o'tadi (7, 169). Bir janrga oid asar, boshqa janrlar uchun ham "mahsulot" tayyorlashi ko'p takrorlanadigan hodisadir. Bu kabi iboralar tilimizda ham ko'plab uchraydi, xususan, matal yoki maqol asosida ibora yuzaga kelishi yoki mashhur jumlar (pretsedent yoki "qanotli jumlar") ham iboralar shakllanishiga sabab bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, biror xalqqa mansub iboralar boshqa xalqlarning frazeologik fondiga ham ko'chib o'tishi mumkin. *Anqoning urug'i (tuxumi)* iborasi ingliz iboralari tarkibida ham aynan o'zbek tilidagi mazmunni saqlagan holda mavjud: *the Arabian bird, the bird of wonder* (5, 168). Ingliz iborasida arab qushi deb sharq mifologiyasidagi afsonaviy qush *Qaqnus (Feniks)*ga ishora qilingani turli din va dunyoqarashlarga ega ikki xalqning miqlar asosida o'zaro munosabatini namoyon qiladi. Ko'rinadiki, ushbu frazeologizmlarda bir tushunchani ifodalashda aynan bir deb qaralmasa-da, o'zaro o'xshash va bir-biriga yaqin, ko'p hollarda biri o'rnida boshqasi bilan adashtiriluvchi afsonaviy qushlarga murojaat qilingan.

Yuqorida aytib o'tilganidek, frazeologizmlar o'zida xalqning tarixi, ijtimoiy-siyosiy hayoti, urf-odatlar, an'ana va qadriyatlar, moddiy va ma'naviy boyliklari, adabiyoti, e'tiqodi va h.k.lari haqida axborot beruvchi manba hamdir. Shu jihatdan iboralarning mazmun ko'lamidan tashqari uning tarkibiy birliklari ham tilshunoslik uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu munosabatlar ayniqsa onomastik komponentli iboralarda o'zini yaqqolroq namoyon etadi. Onomastik komponentli frazeologizmlar, tarkibidagi pretsedent nomlar iboraning xalq madaniyatiga qay darajada, qaysi jihatlari asosida yaqin ekanligini ko'rsatadi. Ma'lumki, onomastik birliklar etnosning milliy xususiyatlarini o'zida jamlagan axborotlar to'plamini tashkil etadi. Masalan, toponimik komponentga ega iboralar aynan joyning o'ziga xos jihatlari, alohida xususiyatlari bilan etnos vakillarining toponimik obyektga munosabatini ifodalaydi, joy nomining xalq hayotida tutgan o'rnini va ahamiyati haqida axborot beradi. *Makkadan hoji kelganday (Makkadan kelganday)* iborasi tarkibidagi Makka toponimi musulmonlar uchun 5 ta asosiy farz amallardan sanalgan haj ziyoratining o'ta mushkulligiga, safarning turli mashaqqatlar bilan uzoq davom etganligi, ushbu farz amalni bajarishni amalga oshirgan inson o'limni bo'yniga olib, ketganligi, shu sabab ham haj amalini bajo keltirgan musulmonlarga xalq orasida alohida ehtirom ko'rsatilishi singari qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni jonlantiradi. Ushbu ibora tarkibidagi Makka toponimi muqaddaslik, qadrlanish va olislik jihatlari ko'ra etalon bo'lib xizmat qiladi. Yoki salbiy mazmun bo'yog'iga ega *onasini Uchqo'rg'ondan ko'rsatmoq* iborasi Namangan viloyatidagi Uchqo'rg'on shaharchasi daryo etagida joylashgani, bu yerning geografik va irrigatsion xususiyatlari daryoda oqib ketgan hayvon va odamlarning jasadlari ko'pincha shu yerdan topilishi bilan bog'liq turli xalq rivoyatlari va ular ta'sirida

xalq xotirasida joyga nisbatan qoʻrquv va salbiy hissiyot shakllanib qolgani bilan izohlanadi.

XX asrdan boshlab xorijiy kinofilmlar, turli tarjima asarlari, publitsistikaning ommaviy madaniyatga keng taʼsiri natijasida tilimizda yangi universal pretsedent toponim komponentli iboralar ham yuzaga keldi, ularning ayrimlari personajlar nutqida uchragan jumalarning pretsedentlik darajasiga koʻtarilishi bilan bogʻliqdir. Tilshunos olim D. Xudoyberganova pretsedent jumlaning ommalashuvi masalasiga toʻxtalib, quyidagi fikrlarni bayon qiladi: "...pretsedent jumlar ayniqsa soʻzlashuv uslubida juda koʻp qoʻllanadi. Xususan, kinofilm qahramonlari tilidan aytilgan ayrim gaplar yoki qoʻshiq satrlari kishilar oʻrtasida tez mashhur boʻlib ketadi. Bunday jumalarni til egalari oʻz nutqiy vaziyatiga moslagan holda ishlatadi" (15, 151). Xususan, **Amerika ochmoq** (soʻzlashuvda **yangi Amerika kashf qilmoq** shakli), **Bagʻdodda hammayoq tinch**, **Kanada chegarasiga yetib olmoq** pretsedent jumalari oʻzbeklarning soʻzlashuvda koʻp murojaat qiluvchi iboralariga aylanib ulgurdi.

Toponimik iboralardan koʻra antroponimik komponentga ega frazeologizmlar tilimizda salmoqli oʻrin tutadi. Biroq iboralar tarkibidagi antroponimlarning hammasi ham pretsedent onim deb olish toʻgʻri boʻlmaydi. Iboralar shaklan ixcham va nutqqa qulay, xotirada tez va oson saqlanishi xususiyati sababli ibora tarkibidagi ismlar katta ehtimol bilan shakl va talaffuz mezoni asosida tanlangan boʻlishi mumkin. Shu orqali iboralar tarkibida uchragan onimlarga oid oʻziga xos onomastic stereotip shakllanadi. Xususan, **Ali xoʻja — Xoʻjaali, Musoning alamini Isodan olmoq** yoki **Alining kekini Validan olmoq** iboralaridagi antroponimlar ohangdoshlik asosida ibora tarkibidan joy olgan. Shu oʻrinda pretsedent nomlarda ular ishtirokidagi yoki taʼsiridagi tarixiy haqiqat, voqea-hodisani tiklash, til egasi xotirasidagi tarixiy yoki badiiy fakti tiklash xususiyati mavjudligiga qaramay, bizningcha, **Musoning alamini Isodan olmoq** iborasi tarkibidagi **Muso** va **Iso** nomlari ular bilan bogʻliq diniy afsonalarni (har ikki paygʻambarlar ham turli sinovlarga uchragan) nazarda tutmaydi.

Iboralar tarkibidagi toponimlar viloyat yoki shaharning oʻziga tanish tanlov xususiyatlari asosida oʻzgarib turishi, iboraning viloyatlarda variantlashuvi yuzaga kelishiga sabab boʻlishi ham mumkin. Masalan, Toshkent shahri va unga yondosh joylarda **ahmoqqa Toʻytepa bir tosh** iborasi uchrasa, vodiyliliklar **ahmoqqa Quva bir tosh** iborasiga murojaat qiladilar. Shu oʻrinda yana bir muhim jihat, matal-ibora tarkibidagi tosh masofa oʻlchov birligi boʻlib, har ikki toponimning shahar bilan oraliq masofasi 30 kmga teng ekanligi ham iboradan aynan shu joy nomlari oʻrin olishiga sabab boʻlgan.

Bazmi Jamshid izofali frazeologizmida esa aynan pretsedent nom ishtirok etgan. Qadimiy afsonalarga koʻra, Eronda yashagan va davlatni boshqargan qudratli shoh timsoli ilk bor Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" asari orqali mumtoz adabiyotga personaj sifatida kirib kelgani aytiladi. Jamshid badiiy adabiyotda zardushtiylilik dinidan avvalroq oʻzi hukmronlik qilgan yerlarda yangi

din tuzgan, keyinchalik u asos solgan mazhab aysh-ishratga mukkasidan ketgan holatda tasvirlanadi. Jamshid o'z shon-u shavkatiga qattiq ishonch bilan qaragan, u hatto xudolik da'vosini ham qiladi. Uning bor shon-u shavkati va saltanati boshqa qavmdan bo'lgan hukmdor tomonidan tortib olinadi. Mumtoz adabiyotda Jamshid obraziga podshoh qiyofasida qarash to'liq saqlangan va bu obrazdan aksar hollarda davlatning bandaga vafo qilmasligi, har qanday qudratning o'tkinchi ekanligi va mukammal qudrat faqat yagona yaratuvchi zotga xosligini isbotlash maqsadida foydalanilgan. Iborada aynan shu badiiy faktga ishora mavjud. So'nggi ikki iborada avvalgilardan farqli bir jihat yaqqol yuzaga chiqadi — frazeologizm tarkibidagi nomlar me'yoriy xususiyat kasb etib, mazmunda yetakchilik qilayotgan mazmun uchun etalon bo'lib keladi.

Tilshunoslikda muammoli nuqtalardan yana biri — **etalon**dir. Etalonlarning pretsedent birliklar bilan munosabatida ham ushbu vaziyat namoyon bo'ladi. D. Xudoyberganovanning "Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati"da etalonlar "Biror shaxs yoki narsani boshqa bir shaxs yoki narsaga qiyoslash uchun tanlangan nisbatan barqaror, milliy-etnik xususiyatga ega bo'lgan namunaviy obraz" sifatida izohlanadi. Chiroyli ko'zni o'zbeklar ohuning, qirg'izlar sigirning, qozoqlar bo'taloqning, turklar eshakning ko'ziga o'xshatishi barchaga ma'lum. Shu o'rinda ajratib olingan jihatga har bir xalq o'z dunyoqarashi va turmush tarzi ta'sirida baho etalonini belgilashi oydinlashadi.

Umuman, etalonning yuzaga kelishi ham chuqur milliy-madaniy tasavvurlarning uzoq yillar davomida shakllanishi va lingvomadaniy jamiyat vakillari ongida mustahkam moslashadi. Har qanday o'zaro taqqoslanuvchi obyektlar umumiy xususiyat doirasida olinishi shart, ya'ni ular bir mantiqiy sinfga oid bo'lishlari lozim. O'xshatishga asos sifatida belgilangan jihat esa taqqoslanayotgan obyektlar uchun qat'iy xos, ya'ni ularning tabiatida shu xususiyat yaqqol o'z ifodasini topishi, uning belgisi sifatida namoyon bo'lishi kerak. Predmet va obyektlarga xos taqqoslovchi belgi keyinchalik o'xshash obyektlarni o'zi atrofida birlashtiradi, o'ziga xos obyektlar majmuini tashkil etadi. Masalan, taqqoslashga asos belgi sifatida rang tanlansa (o'z navbatida taqqoslashga asos sifatida belgilangan jihat turlicha bo'lishi mumkin, tezlik, kuch, hajm va hokazo), unda bu asos o'xshash vizual sifatlar asosida juda katta hajmga ega bo'lgan predmet va obyektlar majmuini jamlaydi. Bu kabi katta hajmli predmetlar to'plami keyinchalik taqqoslash uchun asos xususiyatning o'zigina yetarli emasligini, undan tashqari shu xususiyatning jonli namunasiga, ya'ni shu belgi boshqa predmetlardan ko'ra yaqqol namoyon bo'luvchi, barchaga yaxshi tanish namunasiga ehtiyoj sezadi. Belgi yoki xususiyatga ega va uning yaqqol namunasi sifatida maydonga chiquvchi mana shu obyekt aynan etalonidir. Odatda etalonlar tilda turg'un o'xshatishlar tarzida uchraydi, biroq olamning insonga nisbatan har qanday me'yoriy o'lchov tasavvuri ham etalon sanaladi. Masalan, rus tilida

здоров как бык iborasida buqa etaloni salomatlik etaloni sifatida kelsa, o'zbeklar *buqa* bahaybatlik, baquvvatlik etaloni bo'lib, salomatlik ifodasi esa *otdek* o'xshatishi orqali ifoda etiladi. Yoki *bo'ri* o'zbek va boshqa ko'plab turkiy tilli xalqlar uchun ochlik me'yorini ko'rsatuvchi etalon sanalsa, ruslarda *bo'ri* jahldorlikni ifodalovchi me'yor sifatida namoyon bo'ladi — *злой как волк* (*bo'ridek jahldor*). Yuqoridagi misollardan anglashiladiki, bu kabi o'lchov mezonlari xalqning milliy dunyoqarashi ifodasigina emas, balki aslida olamdagi hodisalarning milliy-tipik o'lchovi namunasidir.

Olima Teliyaga ko'ra etalon shaxs yoki predmetning biror xususiyatini kundalik-madaniy tajriba va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda shu jihat yetakchilik qiluvchi biror realiya — personaj, tabiiy obyekt, jismga tavsifiy obrazli almashinishidir. V. Maslova etalonlar ijtimoiy-psixologik darajada tabiat hodisalari, jamiyat, insoniyat, ularning xususiyat va sifatleri haqidagi normativ tasavvurlar sifatida namoyon bo'lishini qayd etib, ularning tanlov va bahoga ta'sir etishini qayd etadi (18).

D. B. Gudkov pretsedent birliklar tizimi o'zida milliy madaniyatning etalonlar tizimini ham ifoda etishini aytib o'tadi. Shuningdek, olim pretsedent birliklar, shu jumladan pretsedent nomlar ham nimani qilish mumkin / mumkin emas mazmunidagi jamiyatdagi xulq-atvor me'yorlarini shakllantiruvchi xatti-harakatlar yoki tavsiflarning o'ziga xos namunaviy mezon sifatida namoyon bo'lishini aytib o'tadi (6, 50). O'zbek tilshunosligida pretsedent nomlarning etalon vazifasida kelishiga D.Xudoyberganova doktorlik dissertatsiyasida to'xtalib o'tadi. Olima o'z dissertatsiyasida **Asqartog', bog'i Eram, Gerostrat, Kolumb, Layli, Shirin, Kumush, Majnun, To'maris, Alpomish, Furqat, Hotam** onimlarining etalonlik xususiyatlari badiiy asardagi namunalari orqali tahlilga tortilgan (15, 140).

Etalonlar bilan bog'liq yana bir muhim jihat "etalon uyasi — etalon belgi" munosaatida bir uychada, ya'ni sifat (jihat yoki xususiyat) doirasida uning etalon belgi bilan munosabati ham farqlanadi:

1) bitta xususiyatga bitta etalon belgi — roman etaloni — "O'tkan kunlar" (ruslarda L. Tolstoyning "Voyna i mir"), g'azalnavis shoir — Alisher Navoiy, hikoyanavis ijodkor — Abdulla Qahhor singari;

2) bitta xususiyatga ega ko'p sonli etalon belgilar — mehnatkashlik etaloni — chumoli, eshak, Zumrad, Farhod va boshqalar, sevishganlar etaloni — Otabek va Kumush, Layli va Majnun, Romeo va Julietta va hokazo.

Davr almashinishi kishilik jamiyatida qadriyatlar o'zgarishi etalon obrazlarning almashinib turishiga olib kelishi, ya'ni muayyan davrda etalon sanalgan jihat ma'lum vaqtdan so'ng tamomila aks jihatlariga aylanishi ham mumkin. Masalan, Yevropa xalqlarida zodagon toifa vakillari orasida tishlarning qurtlashi, ularda kariyes bo'lishi to'qlik, badavlatlikning etaloni sanalgan. Gap shundaki, shakar va boshqa turli qandolat mahsulotlarini kambag'allar xarid

qilish imkoniyatidan mahrum qatlam sanalganlar. Tish bilan bog'liq bu ko'rinishdagi nuqson esa jamiyat uchun boylik, puldorlik etaloniga aylanib qolgan. Bugunga kelib jamiyatning tan sihati masalalariga taalluqli ilmiy va estetik dunyoqarashi tamomila aks tomonga o'zgardi. Yoki go'zallik etaloni tahlil qilinsa, uzoq mingyilliklardan o'zgarmay kelayotgan mifonimlar — Yusuf alayhissalom, Apollon, Afrodita, Venera va tarixiy shaxs — Kleopatra obrazlaridan tashqari har bir davrning o'z go'zallik etalonlari bo'lishi mumkin. Shuningdek, obrazlar o'z navbatida milliy birliklar doirasida ham, universal birliklar orasidan ham tanlangan bo'lishi mumkin.

Uslub, janr yoki tur doirasida ham etalon obrazlar o'zaro farqlanishi mumkin. Fikrimizni dalillash uchun xalq og'zaki ijodi namunalariga yuzlanamiz. Homiy, rahnamo etaloni sifatida latifa va handalarda Afandi, dostonlarda pirlar, ertaklarda donishmand chol va Hizr, ba'zan kampir obrazlari keladi. Shuningdek, mumtoz adabiyot namunalarida oshiq va ma'shuqaning ifodasi sifatida asosan Layli va Majnun obrazlari ko'z oldimizda gavdalansa, folklor manbalarida, avvalo, ertaklardagi Tohir va Zuhrani, badiiy asarlardan esa, avvalo, Otabek va Kumush obrazlarni eslaymiz. Yuqoridagi misollardan anglashiladiki, etalon obrazlar tanlashda har qanday lingvomadaniyat vakili o'z jamoasiga tanish bo'lgan aksar milliy, shuningdek, universal pretsedent birliklarga murojaat etadi. Pretsedent nomning etalon sifatida tanlanishi uning bevosita lingvomadaniy jamiyat vakillari kognitiv bazasidan mustahkam o'rin egallaganligi, til vakillari shu obraz haqida yaxshi tasavvurga ega ekanliklari bilan izohlanishi mumkin.

Insoniyat tarixiy taraqqiyoti davomida, ibtidoiy dunyoqarash shakllangan zamonlardayoq moddiy borliqdan tashqari ramzlar olamida ham yashagan. Shu jihatdan ramzlar inson tasavvuri va tafakkurining eng dastlabki xosilalaridan deyish xato bo'lmaydi. Sh. Turdimov ramz sifatida kelayotgan, anglanayotgan narsaning (u nima bo'lsin) o'zida bir qancha tushunchalarni jamlab, turg'un assotsiatsiya (imuquq) uyg'otishi ramzning alosiy xossasi deb aytadi (14, 5). Olimga ko'ra, turmushda, fanda, adabiyot va san'atdagi ramzlar vazifasiga ko'ra farqlanib, bir sohadagi ramzlar tizimi ikkinchi sohada bu xil vazifani bajarmasligi mumkin. Turmushdagi ramzlar tizimi kommunikativ vazifa bajarishga, fandagi ramzlar tushunchalarni bildirishga, san'at va adabiyotdagi ramzlar tizimi esa kechinma, voqelik va holatni badiiy estetik anglatishga xizmat qiladi (14, 5).

Tilshunos Sh. Usmanovaga ko'ra, "ramz — tashqi dunyoning turli madaniyat vakillari ichki dunyosi, ongi, tafakkuri va ruhidagi aksi. Ramz belgi bo'lib, uning dastlabki ma'nosidan boshqa ma'no uchun shakl sifatida foydalaniladi" (20, 160). Shuningdek, olim ijtimoiy muloqot tizimida muayyan obyektlar, masalan, predmet, harakat, hodisa, matn, tasvir, hayvon, o'simlik, rang, raqam va hokazolar ramz bo'lib kelishi; ramzlar moddiy, tushunchaviy, so'zli, tasviriy va ovozli bo'lishi mumkinligini alohida ta'kidlaydi. Aslida ramz va etalonni bir hodisa sifatida qarash ko'p kuzatiladi. Lekin,

bizningcha, bu ikki hodisaning umumiy nuqtalari bo'lgani holda, ayrim farqli jihatlari ham mavjud. Masalan, bo'ri totemi ramz sifatida turkiy xalqlarda jasurlik, bo'ysunmaslik ramzi sifatida kelsa, o'z navbatida bizning lingvojamiyatimiz uchun ochlik etaloni hamdir — bo'ridek och komparativ iborasi fikrimizni dalillaydi. Bir obyektga nisbatan turli madaniyatlarda turlicha ramzlar tizimi shakllanishi ijtimoiy, maishiy, diniy, tabiiy omillar asosida shakllanganligini kuzatish mumkin. Masalan, aksar xalqlarda it kulti vafodorlik, do'stlik ramzi sanalsa-da (it so'zi haqoratni ham ifodalaydi, lekin ramz sifatida bizning madaniyatimizda vafodorlik ramzi sifatida qo'llanadi), beloruslarda it kultiga salbiy munosabat kuchliroq ekanligi anglashiladi. Bu holat belorus frazeologik birliklar tizimida it bilan bog'liq birliklarning tahlilida yana-da oydinlashadi, beloruslar yomon odam yoki dangasa, landovur ma'nolarini ifodlashda it komponentli iboralarga murojaat qilishi ma'lum bo'ladi (18). Tabiat hodisalariga munosabat ham aynan shunday: arab xalqlarida, ayniqsa, issiq iqlim mamlakat xalqlari uchun yomg'ir baraka, rahmat ramzi sanalsa, doimiy namlikda bo'lgan Yevropa xalqlarida yomg'ir tushkunlik, depressiv kayfiyat, yomon hodisalarning ramzi o'laroq namoyon bo'ladi.

Pretsedent nomlardagi ramziylik funksiyasiga Y. Karaulov tomonidan pretsedent matn muammosi tadqiq obyektiga aylanganda etibor qaratilgan. Olim qayd etishicha, “pretsedent matn ramzining lisoniy ifoda etish usuli boshqa qatlamga oid stereotiplarining ifoda etish usuli bilan muvofiq keladi: masalan, barqanot (krilatiye frazi) iboraga aylangan sitata yoki faqat badiiy obrazni ifodalashgagina emas, balki adresatda tanlangan pretsedent matn bilan bog'liq boshqa turli konnotatsiyalarni faollashtiruvchi atoqli ot” (6, 102). Onomastik birliklar voqelikdagi aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladilar, shu sababli ham atoqli otlar tilning eng qadimiy birliklaridan sanalib, ularga xos bo'lgan mifologik tabiat ramzlar tizimi bilan bevosita aloqador ekanligida dalolat beradi. Badiiy onimlar tadqiqi bilan shug'ullangan E. F. Kosichenko badiiy matndagi onimlarni tasnif qilar ekan, semiotik tahlilga ko'ra ular indeksal, ikonik va simvolik turlarga ajratadi va simvolik (ramziy) onimlar pretsedent nomning aynan o'zi ekanligini qayd etadi. Badiiy matndagi onimlarning simvolik tipi yuqori informativlikka ega ekanligi, shuningdek, dunyoviy va madaniy qadriyatlar bilimiga yo'l ochadi, deb yozadi olim.

O'zbek tilshunosligida atoqli otlar, xususan, pretsedent nomlarning ramz sifatida kelishi bilan bog'liq ilmiy qarashlar D. Xudoyberganova va D. Andaniyazovalarning ishlarida kuzatiladi. D. Xudoyberganova ramziylik atoqli otning pretsedentlik xususiyatini yuzaga chiqaruvchi asosiy jihatligini e'tirof etadi. D. Andaniyazova dissertatsiyasida *Ka'ba*, *Makkatillo* toponim va oykodomonimlari muqaddaslik ramzi, *Toj mahal sevgi ramzi*, *Sahroyi Kabir* toponimi “muayyan sharoitning yo'qligi”, “taraqqiyotdan mahrumlik, hayotdan, rivojlanishdan orqada qolib ketganlik” holatining, shuningdek, *Elsinor*, *Ichon qal'a*, *Dishon*

qal'a, *To'polondaryo* singari qator poetonimlarning ramziylik kasb etganini badiiy matndagi misollar orqali dalillaydi (1, 123–136).

Pretsedent nomning ramz sifatida kelishining yaqqol namunalaridan yana biri Amerika Qo'shma Shtatlarining ramzi sifatida ozg'indan kelgan Sem amaki (inglizchada "Uncle Sam" abbreviaturaga aylantirilganda "Un[ited]" "S[tates]" of "Am[erica]" — qo'shma shtatlar bilan mutanosib keladi) tasviri ko'z oldimizda gavdalanadi (17). Odatda, Sem amaki tasviri qirrador yuz tuzilishiga ega, cho'qqisoqol, Amerika bayrog'i elementlari mavjud bo'lgan silindr va ko'k frak kiygan oq tanli, ozg'in keksa yoshli kishi qiyofasida gavdalanir. Bu obrazning ommalashishi Amerika folklor manbalariga ko'ra, 1812-yilda Britaniya-Amerika urushi bilan bog'lanadi. O'sha davrlarda Nyu-York harbiy bazasiga Sem Uilson ismli qassob front uchun bochkalarda go'sht topshirib boradi. Sem doim bochkalar ustiga "U.S" ishorasini yozib qo'ygan, harbiylar esa buni Sem amakidan deb hazil tariqasida gapirib yurganlar. Keyinchalik Nyu-York gazetolari vatanparvarlik ramzi sifatida Sem amakining suratini chop etadi va shu voqeadan so'ng Sem amaki Amerika timsoli sifatida keng ommalashadi. Yoki yana bir universal nom e'tiqodi boshqa bo'lgan G'arb xalqlari vakillarining dunyoqarashi, e'tiqodi va qadriyatlari asosida ommalashgan Santa Klaus diniy Rojdestvo bayrami va keyinchalik uning ta'sir ko'lamini va ichimlik markasining keng targ'iboti natijasida Yangi yil ramziga aylanishini ham keltirishimiz ham mumkin.

Atoqli otning stereotip, etalon va ramzlar tizimidan joy egallashi aynan shu nomning pretsedentga aylanganini ko'rsatadi. Pretsedentlikning shartlaridan lingvomadaniy jamiyat vakillari lisoniy xotirasidan mustaham o'rin eganlaganlik va diskursda qayta-qayta jonlanish xususiyati shu yo'llar bilan ham namoyon bo'ladi. Biroq pretsedent nomning etalonga aylanishi yoki ramz sifatida namoyon bo'lish aynan bir narsa deb bo'lmaydi. Aslida har ikki holatni chalkashtirish holati ko'p uchraydi. Ramzda majoziylik kuchli bo'lishi, uning sifat yoki xususiyat bilan bevosita aloqasi bo'lmasligi ham mumkin. Biroq etalon tanlangan xususiyatning markazida turuvchi unsur sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, Xumo qushining tinchlik yoki davlat ramzi ekanligida reallikdan uzoqlik kuzatilib, majoziylik unsuri yetakchilik qiladi, biroq Hotamtoyning saxiylik etaloni bo'lib belgilanishi shu nom (obraz) atrofida asosiy va eng yetakchi jihat — saxiylik shu personajga xos ekanligini ko'rish mumkin. Anglashiladiki, etalonda realikka yaqinlik, xususiyatning sohibi ekanlik jihati yetakchilik qilsa, ramzlarda badiiy tasavvur ustuvorligi kuzatiladi. Nomning mashhurliigi u bilan bog'liq stereotip qarashlarni shakllantiradi va bu nom atrofida o'ziga xos stereotipik bilimlar tizimi yuzaga kelishiga olib keladi. Bir pretsedent nomga nisbatan turli lingvomadaniy jamiyatlarda turlicha stereotiplar shakllanganligini ko'rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Анданиязова Д. Бадиий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри... дисс. — Тошкент, 2017. — 136 с.
2. Аҳмедова А. ва бошқалар. Антропоцентрик тилшунослик: тушунча ва терминлар. Монография. Жамоа. — Тошкент: Тубо нашр, 2022. — 176 б.
3. Васильева Н.В. Антропонимические стереотипы в кросскультурном аспекте // Вестник Нижегородского университета им. Н.И.Лобачевского, — 2010, — № 4. — С. 453-456
4. Вилингбахова Е.Л. Модели репрезентации стереотипов в русском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. — Санкт-Петербург: Санкт-Петербургский гос. ун-т, 2011. — 209 с.
5. Гудков Д.Б. Прецедентное имя и проблемы прецедентности. — М.: Ленанд, 1990. — 152 с.
6. Дячкова И.Е. Системно-динамический характер фразеологической номинации в английском языке. Дисс. на соис. науч. степ. канд. фил. наук. — М.: Московский гос. линг. ун-т, 2017. — 169 с.
7. Исмаилов Г.М. Лингвокультурологическое исследование гендерного стереотипа в тюркской фразеологии (на материале узбекского, казахского и каракалпакского языков) // Вестник РУДН. Серия: Вопросы образования: языки и специальность. — 2017. Т. 14. — № 1. — С. 85–92.
8. Кирпичева О.В. Зоонимические стереотипы (на материале экспериментального исследования). // Филологические науки, 2016. — С. 92. — URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zoonimicheskie-steriotipy-na-materiale-eksperimentalnogo-issledovaniya>
9. Кирпичева О.В. Социокультурные антропонимические стереотипы (экспериментальное исследование). // Известия ВГПУ. Филологические науки, 2016. — С. 127-130. — URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sotsiokulturnye-antroponimicheskie-steriotipy-eksperimentalnoe-issledovanie>
10. Коврыга В.М. Ономастический стереотип в репрезентации образа Англии. — Витебск: ВГУ имени П. М. Машерова, 2022. — 371 с.
11. Красных В.В. Этнопсихолингвистика и лингвокультурология: курс лекций. — М.: ГНОЗИС, 2002. — 139 с.
12. Махмудов Н. Иборалар ва уларнинг луғавий тавсифига чизгилар. // Ўзбек тили ва адабиёти. — 2022. — №3 —Б. 7–10.
13. Турдимов Ш. Халқ кўшиқларида рамз. — Тошкент: Фан, 2020. — 192 б.
14. Хакимова Г.Э. Фразеологик бирликларнинг лингвокультурологик аспекти. — Тошкент: Fan va texnologiya, 2018. — 168 б.

15. Худайберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. д-ри ... дис. — Тошкент, 2015. — 151 б.
16. Шебалов Р.Ю. Ономастическая игра в ранней прозе А.П.Чехова: Учебное пособие / Уральский гос. пед. ун-тет. Екатеринбург, 2005. — 130 с.
17. Saydaliyeva M. Pretsedent nomlar tadqiqi yuzasidan mulohazalar. // “So‘z san’ati” xalqaro jurnali / volume 4, issue 4. P. 36. — URL: <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2021-4-84>
18. Usmanova Sh. Lingvomadaniyatshunoslik. — Toshkent: Bookmany print, 2022. —194 b.
19. https://ru.wikipedia.org/wiki/Дядя_Сэм
20. https://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Linguist/maslova/02.php

References

1. Andaniyazova D. *Badiii matnda onomastik birliklar lingvopoetikasi* (Linguopoetics of onomastic units in artistic text), Doctor's thesis, Toshkent, 2017, 136 p.
2. Ahmedova A. *Antropotsentrik tilshunoslik: tushuncha va terminlar. Monografiya. Zhamoa* (Anthropocentric linguistics: concepts and terms monograph. Team.), Tashkent: Tubo nashr, 2022, 176 p.
3. Vasil'eva N.V. *Vestnik Nizhegorodskogo universiteta im. N.I.Lobachevskogo*, 2010, No.1, pp. 453-456.
4. Vilingbakhova E.L. *Modeli reprezentatsii stereotipov v russkom yazike* (Models of stereotype representation in the Russian language) Extended abstract of candidate's thesis, Saint Petersburg: Sankt-Peterburgskii gos. un-t, 2011, 209 p.
5. Gudkov D.B. *Pretsedentnoe imya i problemy pretsedentnosti* (Precedent name and precedent problems), Moscow: Lenand, 1990, 152 p.
6. Dyachkova I.E. *Sistemno-dinamicheskii kharakter frazeologicheskoi nominatsii v angliiskom yazyke* (The system-dynamic nature of phraseological nomination in the English language), Extended abstract of candidate's thesis, Moscow: Moskovskii gos. ling. un-t, 2017, 169 p.
7. Ismailov G.M. *Vestnik*, 2017, No. 1. pp. 85-92.
8. Kirpicheva O.V. *Izvestiya VGPU. Filologicheskie nauki*, 2016. — pp. 127-130, available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/zoonomicheskie-stereotipy-na-materiale-eksperimentalnogo-issledovaniya>
9. Kirpicheva O.V. *Filologicheskie nauki*, 2016, 127 p., available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/sotsiokulturnye-antroponimicheskie-stereotipy-eksperimentalnoe-issledovanie>
10. Kovryga V.M. *Onomasticheskii stereotip v reprezentatsii obraza Anglii* (Onomastic stereotype in the representation of England's image), Vitebsk: VGU imeni P. M. Masherova, 2022, 371 p.

11. Krasnykh V.V. *Etnopsikholingvistika i lingvokul'turologiya: kurs lektsii* (Ethnopsycholinguistics and linguoculturology: a course of lectures), Moscow: GNOZIS, 2002, 139 p.
12. Mahmudov N. *Uzbek tili va adabiet*, 2022, No.3, pp. 7–10.
13. Turdimov Sh. *Khalk kushiklarida ramz* (Symbol in folk songs), Tashkent: Fan, 2020, 192 p.
14. Khakimova G.E. *Frazeologik birliklarning lingvokul'turologik aspekti* (Phraseologik birliklarning of linguoculturology aspects), Tashkent: Fan va texnologiya, 2018, 168 p.
15. Khudaiberganova D.S. *Uzbek tilidagi badiii matnlarning antropotsentrik talkini* (Anthropocentric interpretation of literary texts in Uzbek), Extended abstract of Doctor's thesis, Tashkent, 2015, 151 p.
16. Shebalov R.Yu. *Onomasticheskaya igra v rannei proze* (Onomastic game in early prose), Ekaterinburg, 2005, 130 p.
17. Saydaliyeva M. *Suz san'ati*, volume 4, issue 4, 36 p., available at: <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2021-4-84>
18. Usmanova Sh. *Lingvomadaniyatshunoslik* (Linguistics), Tashkent: Bookmany print, 2022, 194 p.
19. https://ru.wikipedia.org/wiki/Dyadya_Sem
20. https://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Linguist/maslova/02.php